

ZO'RAVONLIKNING IJTIMOIY-FALSAFIY МОHIYATIGA DOIR QARASHLAR

*Mirzaeva Barnoxon Adxamovna, Andijon davlat pedagogika
instituti erkin izlanuvchisi*

VIEWS ON THE SOCIO-PHILOSOPHICAL ESSENCE OF VIOLENCE

*Mirzaeva Barnokhan Adkhamovna, Free researcher of Andijan
State Pedagogical Institute*

ВЗГЛЯДЫ НА СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКУЮ СУЩНОСТЬ НАСИЛИЯ

*Мирзаева Барнохан Адхамовна, свободный научный
исследователь Андижанского государственного
педагогического института*

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Zo'ravonlik" tushunchasi, uning falsafiy mohiyati tadqiqotchi tomonidan ilmiy yoritib berilgan. Har qanday zo'ravonlikning asosida o'zboshimchalik va qonunsizlik yotadi. Zo'ravonlikning har qanday ko'rinishlari hozirgi kunda xalqaro huquq bilan ta'qilangan bo'lsa-da, ayrim hollarda zo'ravonlikni qonun darajasiga ko'tarish holatlari ham uchrab turibdi.

Kalit so'zlar: zo'ravonlik, qonun,adolat, ehtiyoj, psixofiziologiya, komillik, jaholat, ideal zo'ravonlik.

Abstract: In this article, the concept of "Violence" and its philosophical essence are explained scientifically by the researcher. All violence is based on arbitrariness and lawlessness. Although all forms of violence are currently prohibited by international law, there are cases where violence is raised to the level of law in some cases.

Key words: violence, law, justice, need, psychophysiology, perfection, ignorance, ideal violence.

Аннотация: В данной статье исследователем научно объяснено понятие «Насилие» и его философская сущность. Любое насилие основано на произволе и беззаконии. Хотя все формы насилия в настоящее время запрещены международным правом, в ряде случаев наблюдаются случаи возведения насилия на уровень закона.

Ключевые слова: насилие, закон, справедливость, потребность, психофизиология, совершенство, невежество, идеальное насилие.

KIRISH. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar taraqqiyoti shu vaqtga qadar kam o'rganilgan ijtimoiy hodisalarining falsafiy mohiyatini chuqur tahlil qilish imkoniyatini yaratmoqda. Zo'ravonlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati bo'yicha mamlakatimizda yirik tadqiqotlar amalga oshirilmagan bo'lib, faqatgina huquqshunoslik fanlari doirasida masalaning ayrim jihatlari yoritib bernilgan. Holbuki, dunyoda zo'ravonlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati va u bilan bog'liq

masalalar bo'yicha juda keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

O'zbek tilining izohli lug'atida zo'ravonlik tushunchasiga: "Zo'ravonlarga xos xatti-harakat; zo'rlik, kuch ishlatish"[1;167], deb ta'rif berilgan. Bu so'zning o'zagida yotgan "zo'r" atamasiga esa "kuch, qudrat; urinish; tazyiq; zulm" sifatida ta'rif berilgan. Umuman olib qaraganda, "zo'r" so'zi zulm kabi bir xil salbiy bo'yoq dorlikka ega emas, ba'zan u ijobiy holat sifatida narsa-predmetning yoqimli

jihatlarini aks ettirish uchun ham ishlataladi. Zo‘ravonlik esa, to‘liq salbiy ma’noda ishlataladi. Bu so‘zning o‘zagida yotgan kuch – zo‘rlikni haddan ortiq ishlatish natijasida vujudga keladigan salbiy holatlar zo‘ravonlik sifatida baholanadi. Zo‘ravonlikka eng yaqin nisbatan ijobiy xususiyatga sinonim so‘z kuch ishlatish bo‘lib, u ba’zan qonuniy (adolatli), ba’zan esa adolatsiz (noqonuniy) bo‘lishi mumkin. Misol uchun ojiz ahvolda qolgan inson – yoshi katta odam, ayol yoki bolalarga nisbatan kuch ishlatish jamiyat tomonidan bir tekis qoralansa, mavjud xavf-xatarning oldini olish yoki jamoat tartibini saqlab qolish yoinki jinoyatchini zararsizlantirish uchun kuch ishlatish olqishlanishi mumkin. Umuman olib qaraganda, o‘zbek tilida zo‘ravonlik mavjud kuch va vositalarni boshqa insonga zulm qilish uchun ishlatish sifatida baholanadi.

S.I.Ojegovning “Rus tili lug‘ati”da zo‘ravonlik boshqa insonga jismoniy kuch ishlatish, insonning shaxsiy daxlsizligini buzishga qaratilgan majburiy harakat hamda zulm, o‘zboshimchalik ham qonunsizlik sifatida talqin qilinadi [2].

MUHOKAMA. Rus tilida ham zo‘ravonlik so‘zining negizida kuch so‘zi yotadi ham yuqorida qayd etib o‘tilganidek, qator holatlarda zo‘ravonlik namoyon bo‘lishi qayd etib o‘tilgan. Rus tilida zo‘ravonlikni qat’iy uchta namoyon bo‘lish shakli ajratib o‘tilgan bo‘lib, avvlambor jismoniy kuch ishlatishga nisbatan qo‘llangan. Har qanday jismoniy kuch ishlatish ham zo‘ravonlik sifatida baholangan. Shu bilan birga qayd etib o‘tish kerakki, zo‘ravonlikning axloqiy va huquqiy tomonlari mavjud bo‘lib, axloqiy jihatdan har qanday kuch ishlatish axloqqa zid bo‘lishi mumkin. Chunki, inson oliy mavjudot va oliy qadriyat. Unga nisbatan jismoniy kuch ishlatish, qiyash, ozodlikdan cheklash va boshqa holatlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Huquqiy nuqtayi nazaridan esa, jismoniy kuch ishlatish davlat hokimiyatini amalga oshirishning va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining ajralmas qismidir. Rus tilida zo‘ravonlik insonning shaxsiy daxlsizligiga putur yetkazish shaklida ham talqin qilinadi. Shaxsiy davxlsizlik jismoniy kuch ishlatishdan ko‘ra ancha keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u insonning sha’ni, qadr-qimmatiga daxl qilishda namoyon bo‘lishi mumkin. Inson sha’ni insonning o‘z-o‘ziga bergen bahosi bo‘lsa, qadr-qimmati jamiyatning unga

bergan ijtimoiy bahosidir. Jamiyatning boshqa a’zolari insonning o‘ziga nisbatan hurmatini, boshqalar bergen bahosini hurmat qilishi kerak bo‘ladi. Har qanday zo‘ravonlikning asosida o‘zboshimchalik va qonunsizlik yotadi. Zo‘ravonlikning har qanday ko‘rinishlari hozirgi kunda xalqaro huquq bilan ta‘qilangan bo‘lsa-da, ayrim hollarda zo‘ravonlikni qonun darajasiga ko‘tarish holatlari ham uchrab turibdi. Misol uchun, Isroil davlati 2023-yilning sentyabr oyidan mart oyigacha G‘azo sektorida amalga oshirgan hujum natijasida 30 mingdan ortiq ayollar va bolalar halok bo‘ldi[3]. Umuman olib qaraganda esa, yer yuzida har yili zo‘ravonliklar natijasida 1,2 mln odam vafot etadi[4].

Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi eng dastlabki lug‘atlaridan bo‘lgan Merriam-Vebster lug‘atida zo‘ravonlikning to‘rt aspekti yoritib berilgan[5]. Birinchidan, insonga nisbatan shikast yetkazish, zarar yetkazish, uning huquq va manfaatlarini suiiste‘mol qilish va kuch ishlatish; ikkinchidan, huquq va manfaatlarini buzish, huquqbuzarlik, tahqirlash, ruhiy jarohat yetkazish; uchinchidan, tabiiy hodisalarga nisbatan ishlatiladigan halokatli ta‘sir (misol uchun tornadoning xonavayron qiluvchi kuchi), shiddat, kelishmovchilik; to‘rtinchidan, matndagi asossiz o‘zgartirish va qo‘shimchaga nisbatan ham zo‘ravonlik tushunchalari ishlatiladi. Ko‘rinib turibdiki, ingliz tilida bu so‘z ancha keng ma’nolarni ifodalaydi. An’anaviy insonga nisbatan asossiz kuch ishlatish kabi ma’nolari bilan birga unga nisbatan ma’naviy va ruhiy bosim o‘tkazish, huquqbuzarlik ham zo‘ravonlik sifatida qabul qilinadi. Shu bilan birgalikda tabiat hodisalariga nisbatan ham zo‘ravonlik ishlatilib, u mavjud barqaror muhitni shiddat bilan buzib yuboradigan hodislarni ifodalash uchun ishlatiladi. Ingliz tilidagi “zo‘ravonlik” so‘zi o‘zbek tilidagi “zo‘raki” so‘zi kabi ma’lum bir holatda soxtalikni ham ifodalashi mumkin. Bu esa kuch bilan ana shu ma’noga, asossiz ravishda olib kelish yoki talqin qilish sifatida qo‘llanishini ko‘rish mumkin.

Ingliz tilida zo‘ravonlikning sinonimi sifatida shafqatsizlik, hujum, kuch, g‘alayon, majburlash, bosim, vahshiylilik, zarar, tahdid, g‘azab, qo‘zg‘olon, notinchlik, bezorilik, mayib qilish, urush, terror, zarba va tajovuz so‘zлari ishlatiladi. Umuman olib qarganda esa, ingliz tilida “zo‘ravonlik” o‘zbek tiliga nisbatan kengroq ijtimoiy munosabatlarni va

hodisalarini ifodalashga xizmat qiladi. Zo‘ravonlikning ingliz tilidagi ifodasi nafaqt ingliz tilida gaplashuvchi yuzlab mamlakatlarda uni tushunish uchun ishlataladi, balki xalqaro hujjatlarda ham aks etib, butun dunyo miqyosida bir xilda qabul qilish uchun ham asos bo‘ladi.

Insonning zo‘ravonlik tabiatini qadim-qadimdan allomalarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Arastu zo‘ravonlikni inson erkinliklarini cheklash sifatida talqin qilgan [6;153]. Alloma zo‘ravonlikni jismoniy, aqliy jihatdan cheklash hamda oiladagi zo‘ravonlik turlariga batafsил ta’rif berib o‘tgan. Shuningdek, zo‘ravonlikning moddiy zo‘ravonlik – moddiy boyliklarn foydalanishni cheklash; tajribaviy-ratsional zo‘ravonlik – turli hayotiy holatlardagi zo‘ravonlik bo‘lib, u insonning hayotiy tajribasini oshirishga xizmat qiladi; iste’molchilik-fiziologik zo‘ravonligi – insonning huzur-halovatga intilishda namoyon bo‘ladi; munosabatlardagi zo‘ravonlik – u insonning boshqalar bilan ijtimoiy munosabatalarga kirishida namoyon bo‘ladi; oilaviy-maishiy zo‘ravonlik – oiladagi kabi jamiyatdagi munosabatlarda ham tobeklik xususiyati mavjud bo‘lib, u orqali zo‘ravonlik namoyon bo‘ladi; tarbiyadagi zo‘ravonlik – bu davlatning jamiyatdagi ma’lum bir qadriyatlarni shakllantirishdagi zo‘ravonligidir; davlatning zo‘ravonligi – davlatning jamiyat ustidan hukmronligi o‘z-o‘zidan davlatning ma’lum bir zo‘ravonligini taqozo etadi; quidorlik zo‘ravonligi – qullarning mehnatidan foydalanishdagi zo‘ravonlik; harbiy zo‘ravonlik – bu jangovar harakattdar vaqtidagi zo‘ravonlik bo‘lib, Arastu buni eng so‘nggi chora sifatida talqin qilgan [7;156]. Arastu tomonidan zo‘ravonlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati birinchilardan bo‘lib tushuntirib berilgan bo‘lib, unda bu munosabt shakliga obyektiv yondashuv ustuvorlik qiladi. Zo‘ravonlik tushunchasi hozirgi kunda juda keng va turlicha talqin qilinadi. Ba’zan zo‘ravonlik bilan bog‘liq masalalarda jamoatchilik fikrini chalg‘itish holatlari ham uchrab turadi. Arastu esa o‘z davrining ijtimoiy munosabatlaridan kelib chiqib, mavjud holatlarni reallik bilan ohib bergan.

Aflatunning fikricha, zo‘ravonlikning 3 ko‘rinishi mavjud. Birinchidan, zo‘ravonlikning ideal shakli mavjud bo‘lib, inson ezmilik yo‘lida o‘zini o‘zi cheklaydi [8;610]. Aflatunning ideal zo‘ravonlik g‘oyasi islom falsafasida muhim o‘rin tutgan nafs bilan bog‘liq konsepsiaga juda yaqindir.

Insonning o‘zining orzu-istiklari, cheksiz ehtiyojlari va dunyoviy xayollariga nisbatan zo‘ravonlik qilar ekan, o‘z nafsi jilovlaydi. Mavlono Jaloliddin Rumiy yozadi: “Bu dunyoda yuz minglarcha nur ko‘rsalar ham, nurning aslidan o‘zgasiga qiymat bermaydilar. Agar ko‘zda bir nur bo‘lmasa u butun olamni to‘ldirib turgan nurni ko‘rmaydi. Bunda asos bo‘lgan narsa nafsdagi qobiliyatdir. Nafs boshqa, ruh boshqa bo‘ladi. Ko‘rmayapsanmi, axir, inson uyquda ekan, nafsi qaerlarga borib kelmaydi? Ruh esa hamisha vujudda qoladi. Aylanib yurgan nafs va uning kabi bir narsadir.” [9;57] Allomaning fikricha, insonning mohiyatida ikki shakl mavjud. Ruh va nafs. Bu ikkisi o‘rtasidagi kurash va aloqadorlik inson ma’naviyatini yuksaltirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Nafs ustidan zo‘ravonlik sharaflanadigan, maqtovga sazovor va insonni komillikka yetaklaydigian xislatdir. Bu albatta zo‘ravonlikni juda keng ma’noda tushunishga bo‘lgan intilish hisoblanadi. Hozirgi kunda zo‘ravonlikni talqin qilish bilan bog‘liq cheklangan tassavvurlar doirasida ushbu konsepsiyaning ahamiyati kattadir. Shuningdek, zo‘ravonlikning psixofiziologik shakli ham mavjud bo‘lib, u insonning ayrim ehtiyojlarini qondirishda namoyon bo‘ladi. Uchinchi shakli esa, ijtimoiy zo‘ravonlik bo‘lib u jamiyatda tartib intizom o‘rnatish uchun davlatning fuqarolar ustidan zo‘ravonligidir [10;1].

Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida zo‘ravonlikning mohiyati haqida quyidagicha fikr yuritiladi: “Ba’zilarning o‘ylashicha, mavjudotlarning tug‘ma fe’l-atvori shunday. Bu mavjudotlar o‘zlarning aqlsiz yoxud aqlii hayvonlarga o‘xshash tabiatlariga ko‘ra, o‘z bilganlaricha, erkin holda harakat qiladilar. Shundaylarning fikricha (tabiatan) shaharlar bir-biriga qarshi kurashishlari, o‘zaro dushmanlik qilishlari zarur” [11;53]. Bu o‘rinda alloma jaholatdagi va adashgan shaharlar ahli qarashlarini ifoda etgan va bunday destruktiv yondashuvning sababi sifati ularning aqidalarining buzuqligi ko‘rsatib o‘tgan. Ijtimoiy uyg‘unlikning yo‘qligi va o‘z manfaatlarini bahamijatlik bilan ro‘yobga chiqarish imkonsiz deb hisoblani sabab ham zo‘ravonlik yo‘liga o‘tadilar. Bu esa keyinchalik jamiyatni o‘zaro qarama-qarshiliklar va buzg‘unchilik jarayoniga tortadigan salbiy holatdir.

Nizomulmulkning “Siyosmatnomasi” asarida ijtimoiy zo‘ravonlikni oldini olish masalasiga

to‘xtalib o‘tib, shunday yozadi: “Podshoh haftada ikki kun zulm ko‘rganlarni qabul qilib, zolimlarning dodini berib, jazolab raiyat so‘zlarini bevosita eshitib borishi kerak. Muhim bo‘lgan arizalarни qabul qilib, har biriga javob berishi lozim. Agarda, “podshoh dodxohlarni oldiga chaqirib, haftada ikki marotaba ularning so‘zlarini eshitadi va zolimlarning jazosini beradi”, degan xabar mamlakatga tarqalsa, unda zolimlarni qilmishlarining oqibatini o‘ylab, qo‘rqib bedodlik qilmadilar”[12;20].

XULOSA. Umuman olib qaraganda, Sharq allomalarining asarlarida ijtimoiy zo‘ravonlik haqidagi qarashlar ko‘p uchraydi. Chunki, ana shu davrda zo‘ravonlikning boshqa ko‘rinishlari – ruhiy, maishiy va jinsiy zo‘ravonlik haqidagi qarashlar asosan diniy aqidalarda aks etgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliev tahriri ostida. Toshkent, O‘zbekiston Milliy ensklopediyasi nashriyoti. – B. 167.
2. <https://slovarozhegova.ru/word.php?wordid=15969> - Tolkovы slovar Ojegova onlayn
3. <https://news.un.org/ru/story/2024/03/145029>
- 2 - V Sovbeze obsudili seksualnoe nasilie v kontekste blijnevostochnogo konflikta
4. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC4340604> - National Library of Medicine
5. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/violence>
6. Ivashina Roman Anatolevich (2022). Ponyatie nasiliya v sotsialno-politicheskoy filosofii Aristotelya. Nauchnyy rezultat. Sotsialnye i gumanitarnye issledovaniya, 8 (3), 153.
7. O‘scha manba – B. 156.
8. Platon. Dialogi/per.s drevnegrech.; primech. L.Summ. – Moskva. Eksmo, 2009. – S. 610.
9. Jaloliddin Rumi. Ichindagi ichindadur. Toshkent, Turandot. 1997. - B. 57.
10. Ivashina R.A., Zamarayev A.V. Sxodstvo i otlichiya v ponimanii nasiliya platona i paristikoy. Konferensiya “Lomonosov – 2014”. Sepksiya “Filosofiya. Kulturoloyai. Religovedenie”. – S.1.
11. Abu Nasr Farobi. Fozil odamlar shahri. Toshkent, O‘zbekiston milliy enskopediyasi nashriyoti. 2004 y. – B. 53.
12. Nizomulmulk. Siyosatnama. (Siyar ul-mulk). Ikkinchи to‘ldirilgan, qayta ishlangan nashri. – Toshkent. Yangi asr avlod. 2008. – B. 20.

